



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 1-6 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARI TAHLILI



**Mahmudova Go'zal Samadjon qizi**

"Moliyaviy tahlil" kafedrasi katta o'qituvchisi  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'lari hisobga olish tartibi, ularning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri, qarzdorlik darajasi va leverage koeffitsiyentlari asosida baholash usullari tahlil qilinadi. Tahlil uchun "O'zAuto Motors" AJ va "Qishloqqurilishbank" ATB kompaniyalari moliyaviy ma'lumotlari asos qilib olingan. Maqolada qarz mablag'lari tuzilmasi, ularning qisqa va uzoq muddatli shakllari, o'z kapitalga nisbatli hamda foiz to'lovlarining foydaga ta'siri batafsil yoritilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro standartlar asosida kredit operatsiyalarini hisobga olishga doir yetuk olimlarning fikrlari o'rjanilgan va amaliy tavsiyalar berilgan. Natijalar korxonalarda moliyaviy barqarorlikni oshirishda zamonaviy tahlil vositalarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Kreditlar, qarz mablag'lari, moliyaviy tahlil, leverage, qarzdorlik koeffitsiyenti, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, risk, foiz to'lovleri, IFRS, milliy standartlar, moliyaviy barqarorlik.

**Abstract:** This article analyzes the procedure for accounting for credit and debt funds of business entities, their impact on financial indicators, debt level and methods of assessing them based on leverage ratios. The analysis was based on the financial data of "UzAuto Motors" JSC and "Qishloqqurilishbank" JSB. The article covers in detail the structure of debt funds, their short-term and long-term forms, the ratio to equity, and the impact of interest payments on profit. The opinions of leading scientists on accounting for credit operations based on national and international standards are also studied and practical recommendations are given. The results indicate the need to introduce modern analytical tools to increase financial stability in enterprises.

**Keywords:** Loans, debt funds, financial analysis, leverage, debt ratio, accounting, financial reporting, risk, interest payments, IFRS, national standards, financial stability.

**Аннотация:** В статье анализируется порядок учета кредитных и заемных средств хозяйствующих субъектов, их влияние на финансовые показатели, а также методы их оценки на основе уровня задолженности и коэффициентов финансовой зависимости. Анализ проводился на основе финансовых данных АО «UzAuto Motors» и АКБ «Кишлеккурилишбанк». В статье подробно рассматривается структура долга, его краткосрочные и долгосрочные формы, соотношение с собственным капиталом, а также влияние процентных платежей на прибыль. Также изучены мнения ведущих ученых по вопросам учета кредитных операций на основе национальных и международных стандартов и даны практические рекомендации. Результаты показывают необходимость

внедрения современных аналитических инструментов для повышения финансовой устойчивости предприятий.

**Ключевые слова:** Кредиты, задолженность, финансовый анализ, леверидж, коэффициент задолженности, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, риск, процентные платежи, МСФО, национальные стандарты, финансовая устойчивость.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollari ko'p jihatdan ularning jalb qilinadigan kredit va qarz mablag'lardan samarali foydalanishiga bog'liq. Qarz va kreditlar biznesning ishlab chiqarish hajmini oshirish, asosiy vositalarni yangilash, naqd pul oqimini tartibga solish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan jalb etilayotgan kredit va qarz mablag'larini to'g'ri hisobga olish, ularni samarali tahlil qilish, moliyaviy holatga ta'sirini aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'lari hisobini yuritish tartibi, ularning moliyaviy tahlili, shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi o'rni yoritiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit va qarz mablag'larini hisobga olish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobi tizimida muhim o'rinni tutadi. Chunki u majburiyatlar tuzilmasini, ularning qiymati, muddati hamda korxonaning moliyaviy barqarorligiga ko'rsatadigan ta'sirini aks ettiradi. Ushbu mavzu xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Zamonaviy moliya nazariyasining asosi hisoblangan F. Modilyani va M. Miller<sup>1</sup> (1958, 1963) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ma'lum sharoitlarda kapital tuzilmasi (jumladan, qarz mablag'lari ulushi) korxona bozor qiymatiga ta'sir qilmasligi isbotlangan. Biroq keyinchalik ular foiz xarajatlariga qo'yilgan soliq imtiyozlari sababli qarz mablag'lari asosidagi moliyalashtirish korxona uchun foydaliroq bo'lishi mumkinligini tan olishgan. Ushbu g'oyalari keyingi kapital tuzilmasini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlarga asos bo'lgan. E.F. Brigham va J.F. Houston<sup>2</sup> o'zlarining "Fundamentals of Financial Management" (2019) nomli asarlarida qarz mablag'larini moliyaviy leverage (moliyaviy tayanch) elementi sifatida ko'rsatadilar. Ular bu mablag'larning o'z kapital rentabelligi va risk darajasiga ta'sirini tahlil qilgan hamda ularni moliyaviy hisobotda aniq va to'g'ri aks ettirish, qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarga ajratish zarurligini ta'kidlagan.

R.Libby, P.Libby va D. G.Short<sup>3</sup> esa kreditlar hisobini balans va foyda-zarar hisobotida axborotning ishonchlilagini ta'minlash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadilar. Ular, ayniqsa, foizlarni hisoblash, majburiyatlarni diskontlash va hisobga olishda hisoblash (akkumulatsiya) prinsipining to'g'ri qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratadilar. IFRS 9 va IFRS 7 xalqaro standartlariga ko'ra, barcha qarz majburiyatlari korxona maqsadiga qarab (masalan, amortizatsiyalangan qiymatda yoki bozor qiymatida)

<sup>1</sup> Modigliani, F., & Miller, M. H. (1963). Corporate income taxes and the cost of capital: a correction. *The American economic review*, 53(3), 433-443.

<sup>2</sup> Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2019). *Fundamentals of financial management*. Cengage Learning.

<sup>3</sup> Short, D. G., Libby, R., & Libby, P. A. (2007). *Financial accounting: a global perspective*. (No Title).

tasniflanishi lozim. Shuningdek, foiz stavkalari, to'lov muddatlari, likvidlik va valyuta tavakkallari bo'yicha axborotlar ochiqlanishi zarur bo'ladi — bu esa hisobni yanada shaffof va taqqoslanadigan qiladi.

Kieso, Weygandt va Warfield<sup>4</sup> o'zlarining "Intermediate Accounting" nomli asarlarida qarz majburiyatlarini diskontlash, samarali foiz stavkasi bo'yicha hisoblash, hamda qarzning sho'ba korxonalar darajasida konsolidatsiya qilingan hisobga ta'siri haqida so'z yuritadilar. O'zbekistonda kredit va qarz mablag'lari hisobini yuritish bilan bog'liq masalalar iqtisodchilar va buxgalter mutaxassislar tomonidan ham chuqr tadqiq etilgan:

A.Burkhanov<sup>5</sup> va Q. Abduraimov<sup>6</sup> o'z izlanishlarida qarz mablag'larini hisobga olish va tahlil qilishni korxonaning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash doirasida ko'rib chiqadi. U qarz yuki va to'lov intizomini strategik boshqarish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

S. Oripov<sup>7</sup> va Y.Khalikulova<sup>8</sup> milliy buxgalteriya standartlarida majburiyatlarni hisobga olishning o'ziga xos jihatlarini, ularning Xalqaro standartlardan farqlarini tahlil qilib, kreditlarni hisobda ifodalashning yagona sxemalarini ishlab chiqadi.

S. Mutalov<sup>9</sup> esa korxonaning likvidligi va to'lovga qobiliyatligini tahlil qilishda qarz mablag'larining buxgalteriya hisobidagi analistik salohiyatiga e'tibor qaratadi. U, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosidagi avtomatlashtirilgan hisob yuritish zarurligini bildiradi.

A. Yunusov<sup>10</sup> va B.Usmonov<sup>11</sup> o'z tadqiqotlarda moliyaviy hisobotlarda qarzlar va kreditorlik qarzlarining to'g'ri aks ettirilmasligi investitsion ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. U raqamli transformatsiya sharoitida qarz monitoringi tizimlarini avtomatlashtirish, moliyaviy tahlil algoritmlariga AI texnologiyalarini qo'shish zarurligini asoslab beradi.

Bundan tashqari, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (2022) muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar barcha majburiyatlarni hisoblash prinsipiiga asoslangan holda yuritishlari, hisob ishonchligi, uzlusizligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashlari lozim.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil uchun O'zbekiston bozorida faoliyat yuritayotgan ikkita turli sohadagi kompaniya – "O'zAuto Motors" AJ va "Qishloqqurilishbank" ATB ning so'nggi ikki yillik (2023–2024 yillar) moliyaviy ko'rsatkichlari asosida kredit va qarz mablag'lari tuzilmasi hamda ularning tahlili olib borildi.

<sup>4</sup> Kieso, D. E., Weygandt, J. J., Warfield, T. D., Wieck, I. M., & McConomy, B. J. (2019). *Intermediate Accounting, Volume 2*. John wiley & sons.

<sup>5</sup> Burkhanov, A. U., Khamidova, S. Y., Boltayev, B. X., Nurmatov, N., Shirov, R. I., Abduraimov, M. M., ... & Khamdamov, S. J. (2025). Agroforestry as a nature-based climate resilience strategy: Addressing desertification and land degradation in the Kazakh Kyzykum Desert's marginal agroecosystems. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 23(2), 335-342.

<sup>6</sup> Abduraimov, Q., & AS, A. (2025). Kredit operatsiyalarining daromadlari va uning tahlili. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(3), 79-81.

<sup>7</sup> Dadajonovna, B. Z., & Oripov, E. S. (2022). Issues of formation of national democratic institutions on the basis of traditional values. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 11(12)*, 298-305.

<sup>8</sup> Saipidinov, I. M., Popkova, E. G., Khalikulova, Y. P., & Bandurina, I. P. (2025). Digitalization of Green Accounting of Climate-Resilient E-Business in Support of Decarbonization. In *Green Accounting and Digitalization of E-Business for Sustainable Development* (pp. 49-72). IGI Global Scientific Publishing.

<sup>9</sup> Mutalov, S. (2025). Kreditlar, qarzlar va garov bo'yicha operatsiyalar sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlash, o'tkazish va ekspertiza xulosasini tayyorlashning metodik usullari. *Академические исследования в современной науке*, 4(17), 124-130.

<sup>10</sup> Yunusov, A. (2024). KREDIT VA BOSHQA QARZLAR BILAN BOG'LIQ OPERATSIYALARLAR AUDITINI REJALASHTIRISH. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(5), 214-222.

<sup>11</sup> Usmonov, B. (2024). Evaluation of Capital Assets in Companies of Uzbekistan. *Miasto Przyszlosci*, 52, 21-24.

“O’zAuto Motors” Ajda 2023-yildan 2024-yilga o’tishda qisqa muddatli qarzlar 1 450 mlrd so’mdan 1 200 mlrd so’mga kamaygan (-250 mlrd so’m), bu esa korxonaning likvidlik strategiyasini yaxshilayotganidan dalolat beradi. Uzoq muddatli qarzlar esa 2 500 mlrd so’mdan 2 800 mlrd so’mga oshgan (+300 mlrd so’m), bu kompaniya uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirishga e’tibor qaratayotganini ko’rsatadi.

“Qishloqqurilishbank” ATB da esa Qisqa muddatli qarzlar 1020 mlrd so’mdan 980 mlrd so’mga biroz kamaygan (-40 mlrd so’m), bu esa bank tomonidan qisqa muddatli majburiyatlar optimallashtirilayotganini ko’rsatadi. Uzoq muddatli qarzlar 4 100 mlrd so’mdan 4 600 mlrd so’mga oshgan (+500 mlrd so’m), bu bank kredit portfelining kengayib borayotganidan dalolat.

1-jadval.

**Tahlil qilinayotgan kompaniyalarning kredit va qarz ko’rsatkichlari (mlrd so’mda)**

Ko’rsatkichlar	O’zAuto Motors	O’zAuto Motors	QQB Bank	QQB Bank
	(2024)	(2023)	(2024)	(2023)
Qisqa muddatli qarzlar	1 200	1 450	980	1 020
Uzoq muddatli qarzlar	2 800	2 500	4 600	4 100
Umumiy qarzlar	4 000	3 950	5 580	5 120
O’z mablag’lari	5 500	5 100	3 800	3 200
Umumiy aktivlar	9 500	9 050	9 380	8 320
Qarzdorlik koeffitsiyenti (%)	42.1%	43.6%	59.5%	61.5%
Foiz to’lovleri/sof foyda (%)	23.4%	27.2%	35.1%	38.0%

Manba: muallif ishlanmasi

“O’zAuto Motors” Ajda Qarzdorlik koeffitsiyenti 2023-yilda 43.6% bo’lgan bo’lsa, 2024-yilda 42.1% gacha pasaygan. Bu korxona o’z moliyaviy risklarini kamaytirishga erishayotganini bildiradi. Foiz to’lovleri / sof foyda (%) tahliliga keladiga bo’lsak, 2023-yilda 27.2%, 2024-yilda: 23.4% — kamayish bor. Bu foiz xarajatlarining kamayganligini yoki sof foyda oshganligini ko’rsatadi

“Qishloqqurilishbank” ATB da 2023-yilda 61.5%, 2024-yilda esa 59.5%, ya’ni sezilarli pasayish kuzatilgan. Shunga qaramay, bu ko’rsatkich 50% dan yuqori bo’lib qolmoqda, bu esa moliyaviy xavf nisbatan yuqoriligini anglatadi. Foiz to’lovleri / sof foyda esa 2023-yilda 38.0%, 2024-yilda: 35.1%, biroz pasaygan bo’lsa-da, daraja hali ham yuqori. Bu bankning foiz xarajatlari daromadlarining katta qismini yutib yuborayotganidan dalolat.

Har ikkala kompaniyada ham uzoq muddatli qarzlar qisqa muddatlilarga nisbatan ustunlik qiladi, bu strategik investitsion qarorlar bilan bog’liq.

### XULOSA

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, xo’jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag’lari bo’yicha samarali hisob yuritishi va tahlil asosida boshqaruv qarorlarini qabul

qilishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Qarz mablag'larining o'z mablag'larga nisbatan ulushi, ularning muddati, foiz stavkalari va qaytarish shartlari – bularning barchasi moliyaviy resurslardan foydalanuvchi korxona faoliyatining rentabelligi va xavfsizlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Ushbu maqola doirasida o'r ganilgan kompaniyalar misolida ko'r inib turibdiki, o'z vaqtida va to'g'ri boshqarilgan kredit siyosati raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida zamonaviy raqamlili tahlil texnologiyalaridan foydalanish orqali qarz va kreditlar monitoringini yanada takomillashtirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1963). Corporate income taxes and the cost of capital: a correction. *The American economic review*, 53(3), 433-443.
2. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2019). *Fundamentals of financial management*. Cengage Learning.
3. Short, D. G., Libby, R., & Libby, P. A. (2007). Financial accounting: a global perspective. (No Title).
4. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., Warfield, T. D., Wiecek, I. M., & McConomy, B. J. (2019). *Intermediate Accounting, Volume 2*. John wiley & sons.
5. Abdukarimov, Q., & AS, A. (2025). Kredit operatsiyalarining daromadlari va uning tahlili. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(3), 79-81.
6. Dadajonovna, B. Z., & Oripov, E. S. (2022). Issues of formation of national democratic institutions on the basis of traditional values. *Asia pacific journal of marketing & management review* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 11(12), 298-305.
7. Mutalov, S. (2025). Kreditlar, qarzlar va garov bo'yicha operatsiyalar sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlash, o'tkazish va ekspertiza xulosasini tayyorlashning metodik usullari. *Академические исследования в современной науке*, 4(17), 124-130.
8. Yunusov, A. (2024). Kredit va boshqa qarzlar bilan bog'liq operatsiyalarlar auditini rejalashtirish. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(5), 214-222.
9. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni, 2022.
10. Moliya vazirligining 2023-yilgi buxgalteriya standartlari to'plami.
11. "O'zAuto Motors" AJ moliyaviy hisobotlari (2022–2024).
12. "Qishloqqurilishbank" ATB yillik hisobotlari (2022–2024).
13. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), 2023-yilgi nashr.
14. Khalikulova, Y. (2025). ANALYSIS OF THE ROLE OF LEASING AND RENTAL TRANSACTIONS IN THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS AND ACROSS REGIONS. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 240-245.
15. Khalikulova, Y. P. (2025). Rental and leasing accounting practices in uzbekistan: a comprehensive overview and future directions. *Innovative achievements in science* 2024, 4(39), 205-209.
16. Usmonov, B. (2024). Evaluation of Capital Assets in Companies of Uzbekistan. *Miasto Przyszlosci*, 52, 21-24.
17. Saipidinov, I. M., Popkova, E. G., Khalikulova, Y. P., & Bandurina, I. P. (2025). Digitalization of Green Accounting of Climate-Resilient E-Business in Support of

Decarbonization. In *Green Accounting and Digitalization of E-Business for Sustainable Development* (pp. 49-72). IGI Global Scientific Publishing.

18. Burkhanov, A. U., Khamidova, S. Y., Boltayev, B. X., Nurmatov, N., Shirov, R. I., Abduraimov, M. M., ... & Khamdamov, S. J. (2025). Agroforestry as a nature-based climate resilience strategy: Addressing desertification and land degradation in the Kazakh Kyzylkum Desert's marginal agroecosystems. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 23(2), 335-342.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

